



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN: YER RESURSLARINI BOSHQARISH

MAVZU

03

**QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN
FOYDALANISH**



RO'ZIBOYEV S.B.



**Yer resurslarini boshqarish
kafedrası dotsenti, PhD**



Reja:

- 1. Yer resurslaridan tarmoqlararo va tarmoq ichida foydalanish.**
- 2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ularning turlari**

Yer resurslarini boshqarish ob'yekti

Ob'yekti

Yer fondi

Yer toifalari

Yer turlari

Hudud


Yer uchastkasi



Ma'muriy-hududiy yer fondi


T/p	Viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlari	
		Jami	Shu jumladan sug'oriladigan yerlar	Jami	Shu jumladan sug'oriladigan yerlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16656,1	509,5	418,1	418,1
2	Andijon	430,3	273,7	203	203
3	Buxoro	4193,7	275,0	200,8	200,8
4	Jizzax	2117,9	300,6	482,0	261,4
5	Qashqadaryo	2856,8	515,4	679,2	420,5
6	Navoiy	10937,5	123,5	110,9	91,1
7	Namangan	718,1	282,1	193,1	193,1
8	Samarqand	1677,3	380,3	435,0	251,9
9	Surxondaryo	2009,9	325,7	280,8	240,9
10	Sirdaryo	427,6	287,5	249,8	249,8
11	Toshkent	1525,4	399,7	333,7	299,5
12	Farg'ona	700,5	367,3	247,8	247,8
13	Xorazm	608,2	266,2	206,0	206,0
14	Toshkent sh.	33,1	4,9	0,4	0,4
	Жами:	44892,4	4308,1	4043,6	3288,2

Ma'muriy-hududiy yer fondi (ekin maydoni)



I. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qoyilgan yoki ana shu maqsadlar uchun ajratilgan yerlar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.



Yer turlari tavsifi

Yerdan foydalanish o'z mazmuniga qarab turlicha bo'lib, foydalanish tavsifi bo'yicha farqlanuvchi turli tabiiy – tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan yer uchastkalarining yig'indisidan iborat. Bular yer turlarini tashkil etadi.

Turlicha tabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan, aniq bir ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan yer uchastkalari yer turlari deb aytiladi.

Yerdan foydalanuvchi chegarasida yerlar turlari bo'yicha ish yuritiladi. Shu sababli yer turi yerdan foydalanishda va yer ajratishda asosiy element hisoblanadi.

Yer turlari

Umumiy yer turlari

- Qishloq xo'jaligi yerlari
- Tomorqa yerlar
- Qurilish bilan band yerlar
- Yo'llar bilan band yerlar
- Suv bilan band yerlar
- O'rmonzorlar
- Butazorlar
- Botqoqliklar
- Qumliklar
- Boshqa yerlar

Qishloq xo'jaligi yer turlari



Qishloq xo'jaligi yer turlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ichida alohida o'rin egallaydi.

Umumiy maydoni **25639** ming ga, shundan sugoriladigan yer maydoni **3732** ming ga.

Qishloq xo'jaligi yer turlari

Ekin yerlarga qishloq xo'jalik ekinlari ekilib, uzluksiz foydalaniladigan barcha yerlar kiradi.

Ekin yerlari ikki turga: **sug'oriladigan va lalmi** yerlarga bo'linadi.


Sug'oriladigan yerlar:

Qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar jumlasiga kiradi.

Lalmi yerlar:

Lalmikor yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish faqat tuproq qatlamlaridagi yog'inlar hisobiga yig'ilgan namlik evaziga yetishtirilishini hisobga olib, yillik yog'in miqdori o'rtacha 200 mm dan oshadigan yerlardagina lalmikor ekinlar joylashtiriladi.

Ekin yerlari




Lalmi yerlar maydoni – 773,6 ming ga.

Respublika boyicha 1 kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha ekin maydoni – 0,12 ga.

Ko'p yillik daraxtzorlar

Ko'p yillik daraxtzorlarga bog'zorlar, uzumzorlar, tutzorlar hamda boshqa ko'p yillik mevali daraxtzorlar hamda ko'chatzorlar kiradi.



Yaylov va pichanzorlar

Respublika hududining katta qismini **pichanzor va yaylovlar** tashkil qiladi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi bo'lib hisoblanadi.

Tabiiy sharoitlariga qarab, yaylov va pichanzorlar:

- **cho'l-tekislik** (cho'l mintaqasi),
- **tekislik-tepalik** (adir mintaqasi)
- **tog' oldi-tog'** (tog' mintaqasi) ga bo'linadi.




**Pichanzor va yaylovlar
maydoni 21118 ming ga
(umumiy maydonga nisbatan
47%)**

Bo'z yerlar

Bo'z yerlar tarkibiga samarasiz foydalanish natijasida sug'orish qoidalarining buzilishi va tuproq-meliorativ holatining yomonlashishi, erroziya ta'siri, kuchli sho'rlanishi, gipslanishi hamda yangi o'zlashtirilgan yerlar holatining yomonlashishi oqibatida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi (oborot) dan chiqib qolgan sugoriladigan va lalmi ekin yerlar kiradi.

Maydoni – 83,7 ming ga

Деградация земель на проектной территории Кызыл Рават



При определении степени деградации земель учитывался комплекс экологических индикаторов: засоление, аридизация, дефляция, заболачивание почв; эрозия рельефа; проективное покрытие растительного покрова; состояние растений; глубина залегания грунтовых вод и их качество и т.д.



Yerdan foydalanishda mavjud muammolar

- ✓ *Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish hamda yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish;*
- ✓ *Vakolatli shaxslar hamda yerdan foydalauvchilar tomonidan qonun talablarining buzilishi;*
- ✓ *Yerlardan foydalanishda ekologik talablarga rioya qilinmaslik;*
- ✓ *Yerdan foydalanishda yuridik hujjatlarning to'liq mavjud emasligi;*
- ✓ *Hududlarda yer tuzish, yer kadastri va monitoring ishlarining to'liq joriy etilmaganligi, yer hisobi ma'lumotlarining xatoligi;*
- ✓ *Tuproq unumdorligining pasayishi;*
- ✓ *Yerlarning har xil darajada degradatsiyaga uchrashi va meliorativ holatining yomonlashuvi va boshq.*

Adabiyotlar:

1. Rahmonov Q.R., Narbayev Sh.K., Muqimov Z.M. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2019. – 154 b.
2. Варламов А.А., Гальченко С.А. Управление земельными ресурсами. Учебное пособие. М.: ГУЗ, 2005. – 240 с.
3. Чертовицкий А.С., Базаров А.К. Управление землепользованием. Учебное пособие. Т.: ТИИМ, 2010. – 327 с.
4. Selim Kapor, Hari Eswaran, Winfried Blum. Sustainable Land Management. Springer-Verlag Berlin and Heidelberg GmbH & Co. KG. Germany 2016.
5. Babajonov A.R., Rahmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastrı. T.: TIMI, 2008 – 220 b.
6. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”, T.:“Adolat”, 2015 y.
8. Nigmatov A. Yer huquqi. – T.: “Islom Universiteti”, 2001. – 191 b.
9. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'grisida Milliy hisobot. T.:“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi, 2020. – 102 b.
10. <https://moodle.tiame.uz/course/index.php?categoryid=178>



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



NARBAYEV
SHARAFITDIN
KENGESHOVICH

Davlat kadastrlari kafedrası
dotsenti, PhD



+ 998 71 237 0970



narbayev_sh@tiame.uz

narbayev_sh@mail.ru